

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

Namangan muhandislik-pedagogika instituti

Transport fakulteti

**Kasb ta'limi (Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash)
kafedrası**

Fakultet dekani
____ dots.M.Xatamov
“ ____ ” ____ 2013 y.

“Ximoyaga ruxsat etaman”
Kafedra mudiri
____ dots. A.Polvonov
“ ____ ” ____ 2013 y.

**Xojimirzaev Ubaydullo
(28-KTTVIT-09)**

**Mavzu: Avtomobillarga TXK ko'rsatish mavzusi buyicha metodik tavsiya
ishlab chiqish (Namangan sanoat KXX misolida)**

5140900- Kasb ta'limi (Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash)

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan bitiruv malakaviy ishi

Rahbar:

Salimov X.

Namangan -2013

ANOTATSIYA

Bitiruv malaka ishi 28 varaq tushuntiruv yozuvi va 6 varaq chizma qismidan iborat.

Tushuntiruv yozuvi umumiy, asosiy, o`qitish metodikasi, iqtisodiy, mehnat muhofazasi qismlar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat.

Grafik qismi «Avtomobil va dvigatellarga TXK» fanidan avtomobillarga TXK mavzusi bo`yicha metodik tavsiya ishlab chiqish bo`yicha talabaning ishlanmalari keltirilgan.

Bitiruv malaka ishini umumiy qismida kasb-hunar kolleji tavsifi, malaka tavsifi va o`quv jarayoni tahlili berilgan.

Asosiy qismida fan va mavzuning tavsifi, fanlararo bog`lanishlar, mavzuning uslubiy va texnik tahminoti, dars materiali hamda anhanaviy dars o`tishning qiqacha bayoni va ularni zamonaviy usullar bilan qiyoslash, dars mavzusi, avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish bo`yicha metodik tavsiya ishlab chiqish hamda interfaol strategiyalar asosida o`qitish tavsiya etilgan. Iqtisodiy qismida taklif etilgan o`qitish metodini iqtisodiy samaradorligi aniqlangan.

Mehnat muhofazasi qismida Kasb hunar kolleji o`quv ishlab-chiqarish bazasida mehnatni muhofaza qilaish keltirilgan.

.

Mundarija

Kirish

1. Umumiy qism

- 1.1 Namangan sanoat kasb-hunar kolleji tavsifi
- 1.2 Kasb tavsifi
- 1.3 Bitiruv malaka ishi mavzusini asoslash

2. Texnologik qism

- 2.1 Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish fanini tavsifi
- 2.2 Fanlararo bog'lanishlar
- 2.3 Mavzuning uslubiy va texnik tahminoti
- 2.4 Anhanaviy dars o'tishning qisqacha bayoni va uni zamonaviy dars o'tish usullari bilan qiyoslash
- 2.5 Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish (TXK) bo'yicha dars materiali

3. Asosiy qism

- 3.1 Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha metodik tavsiya ishlab chiqish
- 3.2 Avtomobillarga txk turlari bo'yicha bajariladigan ishlar texnologik jarayonning ketma-ketligi
- 3.3 O'quv amaliyotini o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar
- 3.4 O'quvchilarning bilimlarini tekshirish uchun namunaviy test savollari
- 3.5 Avtomobillarga TXK mavzusini o'qitishda interfaol strategiyalarni qo'llash

4 Iqtisodiy qism

- 4.1 Pedagogik tajriba va uning natijalari

5 Mehnat muhofazasi qismi

- 5.1 Kasb hunar kolleji o'quv ishlab-chiqarish bazasida mehnatni muhofaza qilaish

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

O'zbekiston Respublikasining "Tahlim to'g'risida" Qonunini amalga oshirish borasida raqobatbardosh kadrlar, ayniqsa, turli tahlim xizmatlari ko'rsatuvchilar (tarbiyachilar, o'qituvchilar va pedagoglar) ni tayyorlash bo'yicha qator muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Oliy Majlisning 1997 yil 29 avgustdagi to'qqizinchi sessiyasida ushbu toifadagi kadrlar haqida

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov shunday degan edi:

- "Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularni mahlumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz".

O'zbekiston Respublikasining "Tahlim to'g'risida"gi qonuni qoidalariga binoan kadrlar tayyorlashning milliy modelini amalga oshirish bu tizimni mamlakatda amalga oshirilayotgan ishtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda tubdan isloh qilishni ko'zda tutadi.

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar tahlimi pedagoglariga quyiladigan talablar:

a) Pedagogga quyiladigan talablar va uning umumlashtirilgan modeli. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi zamonaviy pedagogka quyiladigan talablar majmuini belgilaydi. Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning ushbu majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi.

Umumlashgan modelga muvofiq asosiy (fundamental) talablar quyidagilardan iborat:

- tahlim berish mahorati;
- tarbiyalay olish mahorati;
- O'quv-tarbiya jarayonida inson omilini tahminlovchi shaxsiyat fazilatlarini;
- tahlim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Tahlim berish mahorati pedagogga quyiladigan talablar va o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan quyidagi bosh (dominant) omillar bilan aniqlanadi:

- qo'llab-quvvatlash va o'quv jarayoni muhiti;
- pedagogning psixologik-pedagogik tayyorgarlik;
- fanni chuqur bilishi, kasbiy omilkorlik va eruditsiya;
- yangi pedagogik va kompg'yuter texnologiyalarni bilish;
- kasbiy axborot manbaalari sifatida chet tillarini bilish;
- yangi uslubiy va bilim manbaasi sifatida ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish;
- uzluksiz tahlim tizimining mehyoriy hujjatlarini bilish;
- o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishning moddiy texnika bazasi bilan bog'liq bo'lgan axborot bazasi va resurslari. Tarbiyalay olish mahorati pedagogning yuksak madaniyat va mahnaviyat saviyasiga, shaxsiy axloqiy, vatanparvarlik va burch (hislar) iga asoslanadi. Tahlim oluvchilarda dunyo yaxlitligi yuksak madaniyat, mahnaviy tafakkurni shakllantirish uchun pedagogning o'zi gumanitar va gumanistik ruhda tarbiyalangan hamda o'quv-tarbiya ishini tashkil etish mahoratiga ega bo'lishi shart.

Pedagogning o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini tahminlovchi shaxsiy fazilatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik va adolatlilik, halollik va hayrihohlik, kirishimlilik va hazil-mutoiba hissi. Ushbu fazilatlar pedagogning tahlim oluvchilar oldida obro'sini belgilaydi. Pedagogning shaxsiy fazilatlarini uning tahlim berish va tarbiyalay olish mahoratiga tahsir ko'rsatadi.

Tahlim oluvchilarning bilimlarini reyting asosida baholash va nazorat qilish mahorati psixologik-pedagogik jihatdan pedagogning tahlim berish va tarbiyalay olish mahorati bilan uzviy bog'lik. Pedagog tahlim oluvchilarning bilimlarini obhektiv baholash mexanizmlarini bilishi va ularni mukammal ravishda reyting-nazoratda qo'llay olishi, hamda standart testlarni ishlab chiqa olish va qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishi lozim.

Oliy tahlim-mustakil fikrlovchi shaxsni shakllantirishni tahminlovchi, uzluksiz tahlimning zamonaviy talablariga javob beradigan, o'zi tanlagan bilimlar sohasi yo'nalishi (ixtisosligi) bo'yicha ijodiy faoliyatiga tayyor, respublikaning ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini tahminlashga qodir, yuksak ahloqiy va mahnaviy fazilatlariga ega, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni amalga oshiruvchi mustaqil tahlim turidir. Oliy tahlimning kasbiy - tahlim dasturlarini o'zlashtirish o'rta maxsus kasb-hunar tahlimidan keyin, ular negizida amalga oshiriladi. Oliy tahlim auditoriya mashg'ulotlari auditoriyadan tashqari (o'ziga tayyorlanish), mustaqil bilim olish va eksternet shakllarda tashkil qilinadi.

Oliy o'quv yurtidagi o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari

1. Oliy maktabdagi tahlim o'rta (o'rta maxsus) mahlumot negizida amalga oshiriladi va muayyan mutaxassislik (yo'nalish) ga yo'naltirilgan bo'ladi.
2. Oliy maktabdagi tahlim didaktik jarayon bo'lishi bilan bir vaqtda ilmiy tadqiqot ishlari bilan o'zaro bog'liq holda olib boriladi.
3. Oliy maktabdagi jarayon o'ziga xos shakl va metodlarda olib boriladi.

Bu jarayonni modellash umumiy didaktik va o'qitishning bu pog'onasi didaktikasi muammolari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi. Oliy tahlim o'rta (o'rta maxsus) negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichiga ega.

Oliy tahlim muassasalari uchun professor-o'qituvchi kadrlar tayyorlash, tahlim muassasalarida tarkibiy o'zgarishlar o'tkazish, boshqaruvni takomillashtirish, tahlimni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi tahsirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalar, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalanilgan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirilishi, xalqning boy mahnaviy va intellektual meros va umummanbaalik yo'nalishini tahminlash.

Ishlab chiqarishning talab va ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimning yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantirishda, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, tahlimning muvoziy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Pedagog kadrlarning ilg'or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish, o'zaro integratsiyalangan tahlim muassasalarini zamonaviy asbob-uskunalar, apparatlar bilan jihozlash.

Mazkur vazifani muvaffaqiyatli hal qilishda muxandis-pedagoglarning fan va texnika sohasidagi yutuqlaridan muttasil foydalana bilishlari, o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tahlimi tajribalarini tadbqiq, eta olishlari katta ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni hal qilishda bajarilayotgan bitiruv malakaviy ishlari katta ahamiyatga ega.

1.1. Namangan sanoat kasb-hunar kolleji tavsifi.

Namangan shaxridagi Namangan sanoat kasb-hunar kolleji 1983 yilgacha Andijon kichik mashinasozlik texnikumining Namangan filiali deb yuritilgan. 1983 yilda esa Namangan industrial texnikumi tashkil to'gan va uni nomi bilan atala boshlagan. 1983yildan 1999yilgacha Namangan industrial texnikumi Res'ublikamizda ko'zga ko'ringan o'rta maxsus ta'lim beradigan o'quv dargoxiga aylangan. Shu yillarda hunar texnika bilim yurtida yetuk mutaxassislar zaxirasiga ega bo'lgan bu o'quv dargoxida kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim amalga oshirib kelindi. Namangan industrial texnikumini 10000 dan ortiq o'rta maxsus malakaga ega bo'lgan talabalar bitirib chiqishdi vaxozorgi vaqitda mamlakatimizning turli ishlab-chiqarish korxonalarida xar-xil soxalar xamda boshqaruv tizimida mexnat qilishmoqda. Namangan industrial texnikumi mamlakatda ko'zga ko'ringan o'quv yurtiga aylantirishda sobiq direktori I.Ne'matullaevning mexnati beqiyosdir.

O'zbekiston res'ublikasi vazirlar mahkamasining 1998 yil 23-sentyabrdagi 406-sonli 1998-2005 yillarda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini moddiy texnika bazasini rivojlantirish hamda mablag' bilan ta'minlash dasturi to'g'risidagi qarori asosida, Namangan industrial texnikumi vazirlar mahkamasining 1999 yil 15 noyabirdagi 215-sonli qarori bilan Namangan sanoat kasb-hunar kollejiga aylantirildi. Namangan sanoat kasb-hunar kolleji maqomi berilgach, u to'la rekonstruktsiya qilindi xamda qayta jixozlandi. Kasb hunar kolleji O'zbekiston res'ublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi Namangan viloyat hokimligining o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tarkibiga kiradi.

Kasb-hunar kolleji davlat standartlari doirasida o'rta maxsus kasb-hunar bilimini beradigan o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan yangi turdagi o'quv yurtidir.

Ta'lim shakli kunduzgi. Kasb-hunar kolleji bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan nusxadagi di'lom beriladi, unda o'rta maxsus kasb ta'limi yo'nalishlari va mutaxassisliklarini klassifikatori tasniflashni muvofiq mutaxassislik bo'yicha berilgan malaka ko'rsatiladi.

Namangan sanoat kasb-hunar kolleji Namangan shaxrida joylashgan. Davlat bankida hisob raqamiga ega. Kasb-hunar kollejiga qabul qilish umumiy o'rta ta'lim negizida maktablarning 9-sinfini bitiruvchilarini yakuniy Davlat attestatsiyasi va umumiy o'rta ta'limning tugatishda ular tomonidan olingan reyting ko'rsatkichlari natijalari bo'yicha ixtiyoriy ravishda tanlagan mutaxassisliklarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kollejida o'qish muddati 3 yil mutaxassisliklar o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorlari asosida tayyorlanadi. Kasb hunar kolleji yiliga 300 ta o'quvchini quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha qabul qiladi:

3840020 Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish

3840021 Avtomobillarni elektr jixozlarini ta'mirlash elektrigi
«V» va «S» toifali xaydovchi

3520610 Metallarga ishlov berish

3521220 Yuk tashishni tashkil etish va avtomobil xarakatini boshqarish

3520230 Sanoat korxonalari va fuqaro inshoatlaridagi elektr montaj ishlari

3521910 Elektron hisoblash mashinalari va kom'yuter tarmoqlarini o'rnatish

3340910 Buxgalteriya hisobi

3541010 Soliqqa tortish

Namangan sanoat kasb-hunar kolleji Osiyo taraqqiyot bankining O'zb-1737 loyixasiga kiritilgan bo'lib, sanoat yo'nalishi bo'yicha mamlakatda birinchilardan bo'lib yangi texnika jixozlarini o'rnatib bo'lindi va ishga tushirildi. Kolejdanda 2004-2005 yillarda 7 nafar malakali muxandis-'edagog va raxbar kadrlar chet ellarda Germaniya,Avstraliya,Indaneziya kabi rivojlangan davlatlarda malaka oshirib keldilar.

Kolejda 300 o'rinli talabalar uyi, s'ort zal, 300 o'rinli kutubxona, kichik avtodrom, 200 o'rinli marosimlar zali, 240 o'rinli oshxona va o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari talabalarning yaxshi bilim olishlari uchun xizmat qilmoqda.

1.2. Kasb tavsifi

Hozirgi kunda kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda jarayonida tayyorlanayotgan mutaxassislar zamon talablariga mos bo'lishlari shu bugunning talabi. Kasb-xunar kolejlarida avtotrans'ortlarni ishlatish va ta'mirlash bo'yicha kichik mutaxassisliklarini tayyorlash muxim ahamiyatga egadir.

Res'ublikamizdagi kasb-xunar kolejlarida avtomobil trans'ort vositalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha quyidagi:

Tayyorlov yo'nalishi: Avtotrans'ortlarni ishlatish va ta'mirlash

Yuk tashishni tashkil etish va avtomobil xarakatini boshqarish
Kasbi: Avtotrans'ortlarni ishlatish va ta'mirlash bo'yicha usta.

Yuk tashishni tashkil etish va avtomobil xarakatini boshqarish

Mutaxassisliklar:

- Avtotrans'ortlarni ishlatish va ta'mirlash
- Avtomobillarni elektr jixozlarini ta'mirlash elektrigi
- Yuk tashishni tashkil etish va avtomobil xarakatini boshqarish
- «V» va «S» toifali haydovchilar tayyorlanmoqda.

Avtotrans'ortlarni ishlatish va ta'mirlash yo'nalishining qo'llanish sohasi va vazifasi. Ushbu yo'nalish bo'yicha Davlat va nodavlat avtokorxonalar uchun avtomobillarni ishlatish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajaradigan kichik mutaxassisliklar tayyorlanadi.

Avtotrans'ortlarni ishlatish va ta'mirlash tayyorlov yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan kichik mutaxassis mehnat bozorida quyidagi lavozimda faoliyat ko'rsatadi:

- Trans'ort vositalarini ishlatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar;
- Avtomobillarni elektr jixozlarini ta'mirlash elektrigi;
- «V», «S» toifali haydovchi.

Standartda belgilangan zarur va etarli mazmuni, kasbiy ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga kichik mutaxassis malakasi beriladi.

Kasbiy ta'limni chuqurlashtirish maqsadida kadrlar malakasini oshirish tizimida, tarmoq o'quv muassasalarida va maxsus kurslarda keyinchalik malakani oshirish amalga oshiriladi.

Oliy o'quv yurtlarida kasbiy faoliyatni mazkur sohasida yanada yuqoriroq malakaga erishiladi.

Ushbu tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassisliklar mehnat bozorida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim Markazi, Mehnat vazirligi hamda Moliya vazirliklari tomonidan tasdiqlangan «O'rta maxsus, kasb-hunar o'quv muassasalari bitiruvchisining faoliyati yo'nalishlari egallagan kasblari, lavozimlari tarif razryadlarining oralig'i» me'yoriy hujjat asosida quyidagi lavozimlar bo'yicha keltirilgan tarif razryadlari bo'yicha ishlashlari mumkin: trans'ort vositalarini ishlatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar 3-6 tarif razryadi; elektrik va «V» hamda «S» toifali haydovchilar.

1.3. Bitiruv malaka ishi mavzusini asoslash

Kasb-hunar kollejlarning har bir mutaxassisliklari uchun, ayniqsa, kasbiy fanlardan adabiyotlar tahminoti hozircha talab darajasida emas. Kasb-hunar kollejlari uchun yaratilayotgan adabiyotlarning yangi avlodi kasb-hunar kollejlarni tahlim standartlari talablariga to'la javob berishi lozim. Bundan tashqari respublikamizda amalga oshirilayotgan «Tahlim islohotlari» ni aks ettirish lozim. Yaratilayotgan adabiyotlar va uquv qo'llanmalari na faqat uquvchilar auditoriyasi uchun, balki, o'qituvchilar uchun ham mo'ljallangan bo'lishi lozim, yahni o'qituvchilar uchun mavzularni va mashg'ulotlarni o'tishda lozim bo'lgan ilg'or uslubiy ko'rsatmalar ham keltirilgan bo'lishi kerak.

«Avtotransportlarni ishlatish va ta'mirlash» kasbi bo'yicha avtochilangarlar va haydovchilar tayyorlashda «Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish» fani kasbi fanlardan biri hisoblanib, kasbiy ko'nikmalar va bilimlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgacha bo'lgan davrda o'zbek tilida «Avtomobil va dvigatiellarga texnik xizmat ko'rsatish» fani bo'yicha «Avtomobillarga texnikaviy xizmat ko'rsatish» G.V.Kramarenko tahriri ostida darslik chiqarilgan, lekin bu asosan sobiq ittifoq davrida chop etilgan adabiyotni tarjimasidir. Bunda faqat ittifoq davrida ishlab chiqarilgan avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish ishlari bayon etilgan, hozirgi kunda g'O'zbekiston ishlab chiqarilgan avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha adabiyotlar yetarli emas. Bundan tashqari bu adabiyot bilan kasb-hunar kollejlari to'la tahminlanmagan. Hozirgi kasb-hunar kollejlarni moddiy texnik bazasini yangi o'quv jihozlari bilan yetarli darajada tahminlangan deb hisoblash mumkin.

Kasb-hunar kollejlarda kasbiy fanlardan tahlim beruvchi o'qituvchilarni ham malakasi talab darajasida deb bo'lmaydi. Kasb-hunar kollejlardagi bu muammolarni yechish maqsadida tayanch oliy uquv yurtlari qoshida o'qituvchilarni malakasini oshiri kurslari va bo'limlari tashkil etildi. Bunday bo'limlarni tashkil etish kadrlar tayyorlar milliy dasturini sifat bosqichini vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan muhim qadamlardan biridir.

Kasb-hunar kollejlarni pedagoglari tahlim standartlari, o'quv rejalari va fanning namunaviy dasturi asosida fanning har bir mavzusiga bag'ishlangan dars mashg'ulotlarini aniq maqsadlar asosida loyihalash malakasiga bo'lishi lozim.

Har bir fanni namunaviy va ishchi dasturlari asosida har bir mavzuga bag'ishlangan dars

mashg'ulotlarini olib borish jarayonini loyihalamasdan tahlil jarayonini sifatini oshirishni tasavvur qilish mushkul.

Dars jarayonini loyihalash, ya'ni soddaroq qilib aytganda rejalashtirish, bu mavjud adabiyotlar, ilmiy texnik jurnallar va axborotlar, o'quv jihozlari, o'qitish vositalari, ko'rgazmali qurollar yordamida o'quv va tahlil maqsadlariga erishini eng samarali yo'llaridan biridir.

Hozirgi kunda dars jarayonini rejalashtirishga va loyihalashga bag'ishlangan ko'plab anjumanlar, uquv kurslari tashkil etilib, ushbu anjumanlar materiallari asosida uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqilmoqda va tahlil jarayonida keng qo'llashda foydalanilmoqda. Jumladan kasbiy va texnika fanlaridan mahruzalar matni, o'quv qo'llanmalar va adabiyotlarni yaratish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va qo'llanmalar ishlab chiqildi. Biroq bunday qo'llanma va ko'rsatmalarda texnik fanlarni o'zigacha xos tomonlari yetarli darajada ochib berilmagan va hisobga olinmagan.

Tahlil jarayonini sifatini belgilovchi ana shunday muammolarni hal etish uchun kasbiy fanlarni har biri bo'yicha ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida kasbiy fanni o'qitish uslublariga bag'ishlangan adabiyotlarni yaratish va ularni ko'plab nusxalarda chop ettirish tahlil jarayonida hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Bitiruv malaka ishining «Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish» mavzusini o'qitish uslubini ishlab chiqish bo'lib, yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishda bir kichik qadam bo'lib hisoblanadi deb o'ylaymiz.

«Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish» fani avtotransportlarni ishlatish va tahmirlash kasbi bo'yicha avtochilangarlar va haydovchilar tayyorlashda asosiy kasbiy fanlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu fanni o'qish jarayonida uquvchilar avtomobil va dvigatellarni nosozlik va buziqliklarini, ular kelib chiqish sabablarini va mehyoriy ko'rsatkichlarini aniqlash; avtomobil, dvigatel va ularni agregatlariga texnik xizmat ko'rsatish va tahmirlash; texnologik jihozlarni tanlash; tozalash, rostlash, moylash ishlarini bajarish; avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish va tahmirlash jarayonini boshqarishni tashkil etish uslublari bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallaydilar.

Bitiruv malaka ishining asosiy maqsadi avtochilangar va haydovchilar tayyorlashda «Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish» fanining ahamiyati, tutgan o'rni, vazifasi va maqsadlarini, fanlararo bog'lanishlarini o'rganish va ularni ochib berishdan hamda «Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish» mavzusi asosida o'qitish uslublarini ishlab chiqish va mavjud adabiyot va qo'llanmalardagi ushbu mavzu materiallarini tahlil qilishdan iborat. **«Avtomobillarga TXX ko'rsatish»** mavzusini o'qitish metodikasini ishlab chiqishda asosiy ehtibor dars jarayonini jihozlanishi, didaktik materiallar, tavsiya etiladigan adabiyotlar, dars jarayonini rejalashtirish va boshqa fanlarda o'tiladigan mavzular bilan bog'lanishlariga qaratilib, mavzuda belgilangan tahlimiy, tarbiyaviy va rejalashtirish maqsadlariga erishish imkoniyatlari yoritib beriladi.

2.1. Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish fanini tavsifi

Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish fani «Avtotransportni ishlatish va tahrirlash» bo'yicha avtochilangar va haydovchilar tayyorlash o'quv rejasini kasbiy fanlar blokiga kiruvchi asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish fani o'quv jarayonida 2 va 3-kurslarda o'tiladi. Fan jami 156 soatga mo'ljallangan bo'lib, shundan 32 soati amaliy mashg'ulot uchun ajratilgan.

Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish fanining asosiy vazifasi avtomobil va dvigatellarni nosozlik va buzqliklari va ularni kelib chiqish sabalari, ularni diagnostikalash, texnik xizmat ko'rsatish va tahrirlash hamda avtomobil transportini atrof-muhitga tahsiri va uni kamaytirish chora tadbirlari haqida ko'nikma va bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanni asosiy maqsadi avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish texnologik jarayonini, unda ishlatiladigan jihoz va dastgohlarni, texnik xizmat ko'rsatish «Nizom» ini, texnik txizmat ko'rsatish va diagnostikalash mehyoriy ko'rsatkichlarini, texnik xizmat ko'rsatish va tahrirlashni yangi usullarini va boshqaruv tizimini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashni, texnik xizmat ko'rsatishda fan va texnika yutuqlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishni o'rgatadi.

Fanni o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

- avtomobil va dvigatel agregat va mexanizmlarini nosozlik va buzqliklarini, ularni kelib chiqish sabablarini va mehyoriy ko'rsatkichlarini aniqlash;

- dvigatel, kuzov, kabina va shassilarga texnik xizmat ko'rsatish ;

- avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatishda ishlatiladigan jihozlarni tanlash;

- tozalash, rostlash, moylash ishlarini bajarish;

- avtmombil agregat va mexanizmlariga texnik xizmat ko'rsatish va joriy tahrirlashda dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirish;

- avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va tahrirlashni o'tkazishni jadvalini ishlab chiqish;

Fanni o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak;

- avtmobil transporti ustavi, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va tahrirlash to'g'risidagi «Nizom»;

- avtomobillardan texnikaviy foydalanish qoidalari, mehyoriy texnikaviy hujjatlar;

- avtomobillar agregat va mexanizmlarini nosozlik va buzqliklarini, ularning avtomobillardan foydalanish jarayonida sodir bo'lish sabablarini aniqlash va bartaraf etish yo'l-yo'riqlari;

- avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va tahrirlash jarayonini boshqarishni tashkil etish uslublari;

- asosiy texnologik va diagnostikalash jihozlari;

- ttexnik xizmat ko'rsatish va tahrirlash jarayonida foydalaniladigan asbob-uskunalar va moslamalarni, ularning ishlash tartibi va ulardan foydalanish qoidalari.

Ushbu fanni «Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish» mavzusi 2 soatga mo'ljallangan.

O'quvchilar ushbu mavzuni o'tish jarayonida kundalik texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish; birinchi va ikkinchi TXK ishlarini tashkil etish; oqim chizigini universal va maxsuslashtirilgan postlardagi ish jarayonini tashkil etish; tashxislashdan foydalanib 1-TXX va 2-TXXni tashkil etish bilan tanishadilar.

2.2.Fanlararo bog'lanishlar

Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish fani «Avtotransportni ishlatish va tahrirlash» bo'yicha avtochilangarlar va haydovchilar tayyorlash uchun mo'ljallangan o'quv rejasining kasbiy fanlar blokiga kirib, asosiy o'rinlardan birini egallaydi. CHunki o'quvchilar bu fanni o'rganish jarayonida haqiqiy kasbiy ko'nikmalar va bilimlarga ega bo'lishadi. «Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish» fani 2 va 3 bosqichlarda o'rganilib o'quv jarayonini tugallovchi asosiy kasbiy fanlaridan biridir.

Fanlararo aloqalar o'qitish jarayonida o'rnatiladigan yoki o'quvchi ongida aks etgan fanlar o'rtasidagi haqiqiy aloqalarning ifodasi sifatida qaralishi kerak. Fanlararo aloqalar ko'p qirrali, o'ziga xos turli xususiyatlarga ega bo'lgan hodisadir. Mazkur tushuncha mohiyatining bir qancha qarama-qarshi izohlari mavjud. Bu o'z navbatida barcha o'qituvchilar va ishlab chiqarish ustalarining hamda puxta o'ylangan didaktik usullar sistemasining maqsadga muvofiq ishlashini talab qiladi. Ushbu didaktik usullar fanlararo aloqalarni o'quvchilarning ongiga singdirishga yordam beradi.

O'qituvchilar fanlararo aloqalarni ko'p hollarda boshqa fanlarni o'rganishdan avval o'quvchilarning olgan bilimlarini «Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish» fanini, yahni o'z fanini ancha to'liq va chuqur ochib berish uchun foydalanish omili sifatida tushunadilar. Fanlararo aloqalarni ancha keng mahnoda tushunmoq kerak; tahlim berilayotgan obhekt, bilim olishi va

tarbiyasiga pedagogik tahsir ko'rsatilayotgan o'quvchilar o'quv jarayonida qanday ishtirok etishlariga ehtibor qaratmoq zarur.

SHu narsa mahlumki, bo'lajak tahmirlovchi chilangarlarni o'qitishda texnikaviy chizmachilik, texnik mexanika, umumiy elektrotexnika asoslari, metallar texnologiyasi, standartlashtirish texnik o'lchov asoslari, mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi, avtomobil korxonalari ish faoliyatini rejalashtirish, ularni iqtisodiyoti va tahlili, yo'l harakati qoidalari va xavfsizligi, avtomobil tuzilishi, avtomobil va dvigatellar nazariyasi, avtomobillarda ishlatiladigan ashyolar, avtomobil elektr jihozlari, avtomobil va dvigatellarni tahmirlash, boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimi va avtomobillarda tashish fanlaridan olingan bilimlardan oqilona foydalanmay turib, avtomobillar va dvigatellarni nuqson va buzuvchiliklari, ularni kelib chiqish sabalari, diagnostikalash, texnik xizmat ko'rsatish va tahmirlash texnologiyasini maqsadga muvofiqligini asoslab berish, materiallarni ko'r-ko'rona yodlab olishdan voz kechish, o'quv materialidagi sabab va oqibatlarni muntazam yoritib berish deyarli mumkin emas.

Fanlararo aloqalarni aniq mahnosini o'quv jarayonida fanlar o'rtasida va o'quvchilar ongida shakllanadigan haqiqiy aloqalar ifodasi sifatida tushunmoq kerak. Pedagogik talablar birligiga ham fanlararo aloqalar mezon sifatida qarash lozim. Buning uchun kasb-hunar kollejlida metodik ishlar yordami bilan butun pedagogik jamoa ishlarini muvofiqlashtirish zarur. Bir-biriga yaqin fanlarda (Masalan, «Avtomobil va dvigatellarni tahmirlash» va «Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish») biror bir masalani, jumladan «ilashish muftasi va uni uzatmasini tahmirlash» mavzularini bir vaqtda o'rganishga to'qri kelganda, mazkur fanlarni o'qituvchilari metodikani kelishib olishlari va ularning har biri mazkur masalani qaysi tomoniga ehtibor berish lozimligini aniqlab olishlari lozim. Demak, fanlararo aloqalar darslarda o'quvchilarning faoliyatini oshirishga tahlim berishda ijodkorlikni rivojlanishiga yordam beradi, o'quv materialini takrorlanishini oldini oladi va o'quv vaqtini dasturda ko'rsatilgan materialni o'rganish uchun tejaydi.

Fanlararo aloqalar o'quvchilarni aqliy o'sishi uchun muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish va ularni hal qilish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

«Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish» fanini quyidagi fanlar bilan bog'lab o'quvchilarga tushintirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2.3.Mavzuning uslubiy va texnik tahminoti

«Avtomobillarga1 va 2-TXK mavzusini dars materiali o'zbek tilida chop etilgan adabiyotda mavjud, biroq bu adabiyotda berilgan materiallar faqat sobiq ittifoqda chiqarilgan avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha materiallar berilgan. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan va chet eldan olib kelib foydalanilayotgan avtomobillarga, jumladan tahminlash tizimiga (injektorli tizim) texnik xizmat ko'rsatish va tahmirlash ishlab chiqarish jarayonlari berilmagan, bundan tashqari bu adabiyot bilan kasb-hunar kollejlari to'la tahminlanmagan. SHu sababli dasturda keltirilgan mavzuni mazmuni va tarkibidan kelib chiqqan holda quyidagi adabiyotlardan foydalanish mumkin:

1. G.V.Kramarenko Avtomobillarga texnikaviy xizmat ko'rsatish. Kasb-hunar kollejlari uchun qo'llanma. Toshkent, mehnat, 1999.

2. Yu.I.Borovskix Avtomobillarni tuzilishi, texnik xizmat ko'rsatish va tahmirlash. Kasb-hunar kollejlari uchun qo'llanma. Toshkent, Mehnat, 2001

Yuqorida keltirilgan adabiyotlarni birinchisi «Avtomobillarga texnikaviy xizmat ko'rsatish», bu adabiyotda sobiq ittifoq davrida ishlab chiqarilgan avtomobillarga 1 va 2-TXK texnologiyasi va uni tashkil etish berilgan, biroq hozirgi kunda O'zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillarni zamonaviy diagnostik va texnik xizmat ko'rsatish jihozlari, texnik xizmat ko'rsatish texnologiyasi berilmagan. Masalan, sobiq ittifoq davrida ishlab chiqarilgan benzinli dvigatellar faqat karbyuratorli bo'lganligi uchun karbyuratorli dvigatellarni diagnostikalash, texnik xizmat ko'rsatish va tahmirlash uchun jihozlar va ularga TXK texnologiyasi haqida mahlumotlar berilmagan. Kasb-hunar kollejlari uchun mo'ljallangan «Avtomobillarni tuzilishi, texnik xizmat ko'rsatish va tahmirlash» o'quv qo'llanmasida karbyuratorli dvigatellarni tahminlash tizimiga texnik xizmat ko'rsatish va tahmirlash bo'yicha berilgan materiallar juda qisqa bayon etilgan bo'lib, mavzuni yoritish uchun qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish lozim bo'ladi. Bundan tashqari birinchi adabiyot singari zamonaviy avtomobillarni konstruktiv xususiyatlari berilmagan.

Darsning texnik tahminotida birinchi va ikkinchi TXK ishlarini tashkil etish; oqim chizig'ini universal va maxsuslashtirilgan postlardagi ish jarayonini tashkil etish; diagnostikadan foydalanib 1-TXK va 2-TXKni tashkil etish bo'yicha ko'rgazmali qurollardan, mulg'timedialardan foydalaniladi.

Ko'rgazmali qurollar bo'lmagan taqdirda adabiyotlardan foydalanib qo'lda tayyorlash mumkin.

2.4. Anhanaviy dars o'tishning qisqacha bayoni va uni zamonaviy dars o'tish usullari bilan qiyoslash

Hozirgi kunda butun dunyo mutaxassislari anhanaviy pedagogikani tanqid qilishda hamjihatdirlar. Zamonaviy o'qitishda hano'z umumiy tushunchalar, qoida va qonuniyatlar o'rganiladigan «Bilimli» yondoshuv ustivordir. O'qituvchilarni real dunyo obhektlari bilan ishlashi hajmi va mazmuni jihatidan juda kam. Yetakchi tahlil sohalarini o'rgani odatda o'quv mahlumotlarini katta hajmini o'zlashtirish bilan cheklanadi. O'quv dasturlari, qo'llanmalari, undan ham ko'proq bevosita o'qitish amaliyotida real dunyo tegishli tushunchalarni o'rganish bilan almashinadi.

O'qitishda anhanaviy yondoshishning asosiy tavsiflarini ko'rib chiqamiz:

- qo'llanishi-bilimlarni uzatish va mavjud madaniyat, ijtimoiy tajriba, ijtimoiy tizimni qo'llab quvatlash;

- turi-davlat manfaatiga qaratilgan;

- tavsifi-reproduktiv;

- o'qitishni tashkil qilish-kasbi faoliyat va kasbiy tayyorgarlikni tahminlash, yangi ijtimoiy-madaniy tajdribani o'zlashtirish maqsadida;

- o'qitishning mazmuni-klassik, predmetli, texnokratik;

- o'qituvchining roli-bilimlar uzatuvchisi, o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish maqsadida tuzilgan o'quv jarayonini tashkilotchisi;

- anhanaviy o'qitish tushunchasi pedagogika bo'yicha adabiyotlarda albatta yangi, istalgan o'qitish usullarida zid qo'yish maqsadida 10 yillar davomida uchraydi.

Bunda anhanaviy o'qitishning odatdagi tavsifi bizda ham xorijiy pedagogikada ham quyidagi asosiy alomatlar bilan tavsiflanadi:

- yangi materialni deyarli hammasi o'qituvchi tomonidan og'zaki bayon etiladi;

- darslik asosan mustaqil ish uchun qo'llaniladi;

- auditoriya mashg'ulotlari paytida darsliklar ayrim hollarda pedagog tushuntirishlaridan o'qovchilar diqatini buzmaslik maqsadida qo'llanilmaydi;

- ko'pincha darslik uyda ham qo'llanilmaydi: uning o'rniga dars paytida tuzilgan konspekt bosadi;

- bilimlarni tekshirish asosan mashg'ulot vaqtini sezilarli qismini egalaydigan shaxsiy og'zaki so'rovlari hamda uzoq muddatlarda o'tkaziladigan nazorat ishlari yordamida amalga oshiriladi. Oxirgi yillada obhektiv testlar ham keng tarqaldi;

- mashg'ulotlar paytida aksariyat hollarda ishning frontal usuli qo'llaniladi, mustaqil ishning nisbiy miqdori juda kam.

O'qitishni bunday tizimini eng jiddiy kamchiligi-talabalarni mashg'ulotlardagi passivligi va bundan kelib chiqadigan uning past samarasi. Ayrim o'quvchilarning faollik darajasi juda ham past.

O'qitishda anhanaviy yondoshuvlar qatoriga odatda quyidagi usullarni kiritadilar:

- tushuntiruvchi-tasviriy (Imnformation-retseptiv, informatsion-bildiruvchi);

- reproduktiv usul.

Informatsion-retseptiv usulni mohiyati uning quyidagi alomatlari bilan tavsiflanadi:

- bilimlar talabalarga «tayyor» holda taqdim etiladi;

- o'qituvchi turli yo'llar bilan bu bilimlar qabul qilinishini tashkil qiladi;

- o'quvchilar bilimlarni qabul qiladilar va ularning mahnosiga yetadilar, o'z xotiralarida saqlab qoladilar.

Tahlimning reproduktiv usulida quyidagi alomatlar alohida ajralib turadi:

- o'qituvchi bilimlarni «Tayyor» holda faqat bayon qilish bilan cheklanamasdan ularni tushintiradi ham;

- o'quvchilar bilimlarni tushinib o'zlashtiradilar. O'zlashtirishning mezoni-olgan bilimlarni to'g'ri tiklash dir;

- o'zlashtirishni mustahkamligi informatsiyani ko'p marta qaytarish yo'li orqali tahminlanadi.

Aytib o'tilgan usullarni unumi pastligidan tashqari o'quvchilarni tayyorgarligida quyidagi kamchiliklar qayd qilinadi: ilmiy bilishni ishonishdan ajrata olmaslik, bilim va haqiqat orasidagi munosabatlarni tushunmaslik, ilmiy informatsiyalar turli toifalari; faktlar, gipotezalar, qonunlar va tamoyillar, modellar, nazariy xulosalar va tajriba natijalarining ishonchlilik darajasini ajrata olmaslik; nazariy tushuntirish, bashorat qilish, oldindan ko'ra bilish orqali fikr yuritish bo'yicha ko'nikmalarni yo'qligi.

2.5. Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish (TXK) bo'yicha dars materiali

Avtomobil va agregatlarning xizmat muddati ko'ch jihatdan ularga vaqtida texnik xizmat ko'rsatish,

ishlatilayotgan ashyolarning (yonilg'i, moy va boshqalar) sifati, xizmat ko'rsatishda qo'llaniladigan moslamalar va asboblarga bog'liq.

Texnik xizmat ko'rsatish avtomobil trans'orti buzilishi oldini olish maqsadida o'tkaziladigan tadbir bo'lib, avtomobil ma'lum yo'lni bosib o'tganidan yoki muayyan vaqt ishlagandan keyin reja asosida majburiy tartibda amalga oshiriladi.

«Avtomobil trans'ortining harakatlanuvchi birikmasiga xizmat ko'rsatish va ta'mirlashga doir nizom» da texnik xizmat ko'rsatishning quyidagi turlari:

- kundalik texnik xizmat ko'rsatish (KTXK);
- birinchi texnik xizmat ko'rsatish (1-TXK);
- ikkinchi texnik xizmat ko'rsatish (2-TXK);
- mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish (MTXK);

Shuningdek ta'mirlashning ushbu ikki turi nazarda tutilgan:

- avtotrans'ort korxonalarida yoki texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida joriy ta'mirlash (JT);
- mukammal (to'liq) ta'mirlash (MT);

Kundalik xizmat ko'rsatishdan maqsad harakat xavfsizligini ta'minlash va avtomobil tashqi ko'rinishini yaxshi saqlash uchun avtomobilning texnik holatini umumiy nazorat qilishdan iborat.

KXTK avtomobil yo'lga chiqishdan oldin yoki garajga qaytgandan so'ng bajariladi.

1. Tekshirish ishlari

Ko'zdan kechirish yo'li bilan quyidagilar tekshiriladi:

- kabina, kuzov, 'latforma, qanotlar, oynalar, orqani ko'rish ko'zgusi, raqamli belgilar, kabina eshiklari, dvigatel ka'oti, eshiklarning qulflash mexanizmlarining sozligi, rama, resorlar, g'ildiraklar, shinalar, shatakka olish qurilmasining holati;
- rul boshqarmasi yuritmasi, gidrokuchaytirgich holati va rul chamberaning erkin harakatlanishi;
- yoritish va daraklash asboblari, oyna tozalagichning shamol to'sadigan oynalarni yuvish va 'uflash qurilmasining ishlashi;
- tormozlash yuritmasi, ta'minlash tizimi, moylash tizimi va sovitish tizimi detallarining ji'sligi;
- avtomobil yurgizilib, agregatlar, qismlar, tizimlar va nazorat-o'lchov asboblarining ishlashi tekshiriladi.


2. Yuvish tozalash ishlari

Kabina va kuzov tozalanib, avtomobil yuviladi, oynalari, orqani ko'rish ko'zgusi, faralar, gabarit chiroqlari, burilishni ko'rsatkichlari, tormozlash signallari va avtomobilning raqamli belgisi artiladi.

3. Moylash, tozalash, yonilg'i va moy quyish ishlari

Dvigatel karteridagi moy sathi tekshiriladi (zarurat bo'lsa, me'yorigacha quyiladi), moyni dag'al tozalash filtri dastasi buraladi, sovitish tizimidagi suyuqlik sathi tekshiriladi (zarurat bo'lsa quyiladi). Qish mavsumida avtomobil ochiq maydonchada saqlanganida dvigatelni sovitish tizimiga suv to'ldirilgan bo'lsa, suv to'kiladi.

Kundalik texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish uchun avtomobilda quyidagi asboblarni bo'lishi kerak.



1-rasm. Kalitlar to'plami

1-asboblarni idishi; 2-otvyortka; 3-umumlashgan otvyortka; 4-g'ildirak kaliti;
5-domkrat; 6-12x14 gayka kaliti; 7-domkrat dastagi.

Avtomobilning tashqi holati

Avtomobilning ichki va tashqi sirtlarini tozalash uchun tez bug‘lanib ketadigan aralashmalardan (lak, benzin, benzol eritkichlar, xo‘jalik yuvish vositalaridan) foydalanish ruxsat etilmaydi.

Bu aralashmalarning ba‘zilari yengil alangalanuvchi va zaharli bo‘lib, inson salomatligiga xavf tug‘dirishi yoki avtomobilga shikast yetkazishi mumkin.

Avtomobilning tashqi sirtiga yo‘ishgan yoki tomgan loy, moy va boshqa iflosliklar vaqt o‘tishi bilan quyidagi shikastlanishlarga olib kelishi mumkin.

1. Buyoq rangining o‘chishi.
 2. Buyoq ko‘chishi oqibatida kor‘usning zanglashi.
 3. Kor‘usni nam va iflosliklar ta’siri natijasida yemirilishi;
- Shuning uchun avtomobil doimo toza holda bo‘lishi kerak.

Birinchi texnik xizmat ko‘rsatish (1-TXK).

1-TXK vaqtida KTXK tarkibiga kiradigan barcha ishlar, shuningdek, navbatdagi 1-TXK yoki 2-TXK gacha yo‘lni bosib o‘tishda avtomobil agregatlari, qismlari va tizimlarning benuqson ishlarini ta‘minlaydigan qo‘shimcha ishlar bajariladi.

1-TXK ko‘rsatish ishlarini bajarishdan oldin umumiy tashhis qo‘yiladi.

Rul chambaragi va rul tortqilari sharnirlarida lyuft bor-yo‘qligi rul boshqarmasini tekshirish asboblari yordamida bajariladi, yuk avtomobillari tormozlarini tekshirish stendida avtomobil ishlayotgan vaqtda va to‘xtatib turish tormozining me’yorda ishlayotganligi; yoritish va ogohlantirish asboblari, oyna tozalagich, yuvgichlarning ishlashi, shamolni to‘sadigan, oynadan shamol urishi, orqani ko‘rish ko‘zgulari to‘g‘ri o‘rnatilganligi, shinalar holati tekshiriladi va ulardagi havo bosimi manometr yordamida aniqlanadi.

1-TXK da bajariladigan nazorat, mahkamlash va rostdlash ishlari:

- dvigatelni ramaga, uskunalarining dvigatelga, shovqin so‘ndirgichga, gaz kirish naychasining chiqarish kollektoriga ‘uxta mahkamlanganligi tekshiriladi. Moy va suv tommayotganligiga ishonch hosil qilinadi. Ventilator, generator, gidrokuchaytirgich nasosi yuritmasi, tasmalarning tarangligi tekshiriladi. Zarur bo‘lsa, yuritma tasmalarining tarangligi rostlanadi.
- Ta‘minlash tizimining tarkibiy qismini holati, ularning birikish ji‘sligi aniqlanadi va sezilgan yonilg‘i tomchisi tomishi bartaraf etiladi;
- Uzatmalar qutisini ilashma karteriga, kardan flanetslarini uzatmalar qutisiga va ketingi ko‘rikka, oraliq tayanchni ramaning ko‘ndalang to‘siniga, yarim o‘qlar flanetslarini g‘ildiraklar gu‘chagiga, qo‘qoqlarning asosiy uzatma karteriga ‘uxta mahkamlanganligi, ilashma te‘kisining erkin xarakatlanishi, rul chambaragi, gaykalar, sharli barmoqlar, chashkalar, burilish sa‘falarining richaglari ‘uxta mahkamlanganligi, rul boshqarmasini kuchaytirish tizimining zichligi tekshiriladi;
- Tormozlar yuritmasidagi naycha va asboblari ji‘sligi, tormoz suyuqligi tomayotganligiga yoki siqilgan havo chiqmayotganligiga ishonch hosil qilinadi, tormozlari gidravlik yuritmal avtomobillarda – ish tormozi te‘kisining erkin harakatlanishi, to‘xtatib turish tormozi yuritmasi sozligi tekshirib ko‘riladi. Tormoz suyuqligining tomishi yoki havoning kirishi bartaraf etiladi, tormoz mexanizmlari va tormoz yuritmasi rostlandi;
- Rama, osma, uzel va uning detallarini tirkamani shatakka olish qurilmasi asbobining holati tekshiriladi.
- Akkumulatorlar batareyasining barcha bankalaridagi elektrolit sathi me’yorga muvofiqligiga ishonch hosil qilinadi. Zarur bo‘lsa distillangan suv quyiladi. Batareyaning yaxshi mahkamlanganligi va simlarning uchlari qutbiy chiqish simlari bilan kontakt yaxshi ekanligi tekshiriladi. (UZDAEWOO avtomobillarida qo‘llaniladigan akkumulatorlar bundan mustasno).

Ikkinchi texnik xizmat ko‘rsatish (2-TXK)

2-TXK vaqtida 1-TXK hajmidagi barcha ishlar bajariladi va qo‘shimcha ravishda 2 tashhis qo‘yishda aniqlangan ishlar amalga oshiriladi.

2-tashhis qo‘yish ishlari 1-TXK dan 1-2 kun oldin bajariladi. 2-tashhis qo‘yish tugagandan so‘ng nosozliklari aniqlangan avtomobil, agar bu nosozliklarni bartaraf etish hajmi katta bo‘lsa, joriy ta‘mirlashga yuboriladi.

2-TXK rostdlash va joriy ta‘mirlash ishlari bilan birga bajarish maqsadga muvofiqdir.

2-TXKda bajariladigan nazorat, mahkamlash va rostdash ishlari:

- Dvigatel tirsakli valining aylanish chastotasini rostlagichi, ventilatori, silindrlar bloki, dvigatel karter tagligi, ilashish mexanizmi, radiator jamlamasi mahkamlanganligi tekshiriladi va aniqlangan nosozliklar bartaraf etiladi. Kla'an mexanizmidagi tirqishlar aniqlanadi va rostlanadi.

- Dvigatelni ta'minlash tizimi, sovitish tizimi va moylash tizimining ji'sligi, karburator, drossel va havo to'siqlari yuritmasi, yonilg'i nasosi, moy va yonilg'i filtrlari, 'urkagichlar, yonilg'i uzatilishi, dvigatel to'xtashini boshqarish mexanizmining sozligiga ishonch hosil qilinadi. Agar zarurat bo'lsa, nosozliklar bartaraf etiladi;

- Startyor, generator va rele-rostdagich tekshiriladi va mahkamlanadi. Generator yuritma tasmasining tarangligi rostlanadi. 25-30 ming km yo'l bosilgandan keyin generator va startyor olinadi, cho'tkalar, kollektor, 'odshi'niklar holati tekshiriladi, yeyilgan detallar almashtiriladi va generator hamda startyor stendda yuklanishi ostida sinab ko'riladi;

- O't oldirish svechalari burab olinadi, qurimdan tozalanadi, elektrodlar orasidagi tirqish rostlanadi va svechalarning ishlashi 202 ' asbobi yordamida tekshiriladi. Uzgich-taqsimlagich olinadi, kontaktlari ko'zdan kechiriladi, ular orasidagi tirqish rostlanadi, uzgich-taqsimlagich vali, to'qmoqcha uchi, mushtchali vtulka moylanadi va uzgich-taqsimlagichning yeyilishi. S'3-8M asbobida tekshiriladi;

- Dvigatelning ishga oson tushish holati tekshiriladi. Salt yurishning eng kam aylanishlar soni rostlanadi;

- Ilashma te'kisining erkin va to'liq yo'li, te'kini orqaga tortish 'rujasining ishlashi tekshiriladi, zarur bo'lsa, rostlanadi;

- Uzatmalar qutisining holati va ji'sligi, masofadan boshqarish mexanizmining ishlashi tekshiriladi, sa'un tozalanadi. Gidromexanik uzatmada zalotniklarni boshqarish mexanizmi rostlanadi, tizimdagi moy bosimi tekshiriladi va rostlanadi;

- Kardanli uzatma sharniri, shlitsali birikma va oraliq tayanch 'odshi'niklaridagi lyuft o'lchanadi;

- Ketingi ko'rik karteri birikmalari ji'sligiga ishonch hosil qilinadi, reduktor va g'ildirak uzatmalari mahkamlanadi, sa'un tozalanadi;

- Rul chamberagi, rul kolonkasi, rul mexanizmi, burilish sa'falari richaglari, rul boshqarmasi yuritmasi, kardanli val sharli barmoqlari mahkamligi tekshiriladi va zarur bo'lsa mahkamlanadi. Rul boshqarmasidagi lyuft, rul tortqilari, sharnirlaridagi lyuft, burilish sa'falari shkvorenli birikmalardagi lyuft, old g'ildiraklarni o'rnatish va muvozanatlash burchaklari tekshiriladi. Zarur bo'lsa, rul boshqarmasining lyufti rostlanadi, rul tortqilari sharnirlari va shkvorenlar almashtiriladi, old, g'ildiraklarning yaqinlashuvi rostlanadi, g'ildiraklar muvozanatlanadi;

- Tormoz yuritmasi, asosiy tormoz silindri, tormoz tizimi kuchaytirgichi, mahkamlanganligi tekshiriladi va mahkamlash ishlari bajariladi;

- G'ildirak gu'chaklari tormoz barabanlari bilan birga olinadi va tormoz kolodkacining ustquymalari, kolodkalarni tortish 'rujinalari, tayanch diskalar, g'ildirak 'odshi'niklarining holati tekshiriladi. G'ildirak gu'chaklari o'rnatiladi va 'odshi'niklarning tarang o'tkazilishi, g'ildirak barabanlari bilan tormoz ustquymalari orasidagi tirqish rostlanadi. Tormoz tizimining gidravlik yuritmasi tizimiga havo kirib qolgan bo'lsa, tizimdan chiqarib yuboriladi va gidrovakuumni ishlashi, to'xtatib turish va yuritmasining sozligi tekshirib ko'riladi;

- Oldingi va ketingi ko'riklarda nuqsonlar yo'qligiga ishonch hosil qilinadi. Rama holati tekshiriladi. Ressor varaqlari, amortizatorlar, reaktiv shtanga va balansirlar mahkamlanadi;

- Kabina 'latforma, zinalar, qanotlar, loy surtkichning mahkamligi tekshiriladi. Zarurat bo'lsa, mahkamlash ishlari bajariladi;

Tozalash va moylash ishlari

Bu ishlar barcha ishqalanish uzellarini moylash kartasiga muvofiq holda moylash, dvigatel karteridagi moyni almashtirish (jadval bo'yicha), moy filtrini almashtirish yoki tozalash, dvigatel karterini shamollatish kla'anini tozalash va yuvish, moy filtrlari kor'uslaridagi cho'kmalarni chiqarib tashlash, transmissiya agregatlari karterlaridagi moyni almashtirish yoki moy quyish ishlarini o'z ichiga oladi. Bulardan tashqari, bu ishlarda tormozlar yuritmasi bakchalariga suyuqlik quyish, havo filtrlari va yonilg'i filtrlarining filtrlovchi qismlarini yuvish ishlari bajariladi.

UZDAEWOO avtomobillari mukammaligi, ishonchligi bilan ajralib turadi. Bu avtomobillarni to'liq ta'mirlash nazarda tutilmagan.

DAEWOO avtomobillarida yeyilishga chidamli materiallar va ilg'or konstruktiv yechimlar

qo'llanilganligi tufayli, ularga TXK ancha oson va ko'chish talab qilmaydi. Avtomobilga TXK kundalik va davriy turlariga bo'linadi.

Agar kundalik TXK avtomobil egasi tomonidan bajarilsa, davriy xizmat ko'rsatish ma'lum masofa bosib o'tilgandan keyin yoki ma'lum muddat (oy) o'tgandan so'ng har bir avtomobil rusimi uchun 1 va 2-jadvallarda keltirilgan ishlar bajariladi.

3.1. Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha metodik tavsiya ishlab chiqish

Maqsad: O'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

O'quv soatlari: 6 soat (240 daqiqa).

Modulni o'rganish jarayonida egallanadigan amaliy ko'nikmalar:

- Mehnat muhofazasi va sanitariya qoidalariga rioya qilish;
- Kundalik TXK ishlarini bajarish;
- Avtomobilni yuvishga qo'yilgan talablar.

Modulni o'rganish jarayonida shakllanadigan nazariy bilimlar;

- Xavfsiz ishlash usuli;
- Avtomobillarga TXK turlari, ularda bajariladigan ishlar;
- TXK muddatlari;
- DAEWOO avtomobillariga TXK ning o'ziga xos xususiyatlari.

Kerakli o'quv-jihoz, asbob-uskuna va ashyolar:

- Uslubiy qo'llanma;
- MATIZ, TICO avtomobillari;
- Nazorat – o'lchov asboblari;
- Yuvish-tozalash uskunasi va ashyolari;
- Dori-darmonlar to'lam (a'techka);
- Yong'inni o'chirish vositalari.

1-jadval.NEXIA avtomobili uchun davriy xizmat ko'rsatish muddatlari

TXK davri	Bosilgan masofa (ming km)	1	15	30	45	60	75	90	105	120
Bajariladigan ishlar	Davr, oy.	-	12	24	36	48	60	72	84	96
Dvigatel										
Generator, rul kuchaytirgich nasoslarining tasmalari	DOHC	T	T	T	T	A	T	T	T	A
	SOHC	T	T	T	T	A	T	T	T	A
Moy va moy filtri		T	A	A	A	A	A	A	A	A
Sovitish tizimi			T	T	T	T	T	T	T	T
Sovitish suyuqligi		T	T	T	A	T	T	A	T	T
Yonilg'i filtri					A			A		
Yonilg'ini ta'minlash tizimi			T	T	T	T	T	T	T	T
Havo tozalagich filtri elementlari			T	A	T	A	T	A	T	A
O't oldirish momenti			T	T	T	T	T	T	T	T
O't oldirish svechalari			T	A	T	A	T	A	T	A
O't oldirish taqsimlagichining qo'qoq va rotori				T		T		T		T
Yonilg'i 'arlarini uzatuvchi yo'lquvurlar va ko'mir yutgich.					T			T		
Dvigatel karteri majburiy shamollatish kla'ani.				T		T		T		T
Taqsimlash vali yuritmasining tishli tasmasi.				T		A		T		A
Izoh:										
T-tekshirish va texnik holatini aniqlash, zarurat bo'lsa, me'yoriy sathga keltirish, tozalash va roslash.										
A-almashtirish.										
DOHC-2 ta taqsimlash vali yuqorida joylashgan dvigatel.										
SOHS – 1 ta taqsimlash vali yuqorida joylashgan dvigatel.										





DAEWOO avtomobillariga davriy TXK muddatlari

№	Avtomobil rusumi	Agregat va detallarning nomi	Bajariladigan ish hajmi	Bosib o'tilgan yo'l (ming km).								
				1	10	20	30	40	50	60	70	80
1.	TICO, MATIZ NEXIA DAMAS	Generator yuritmasining tasmasi.	Tasmaning tarangligini.	+	+	+	+	+	+	+	+	+
			Tasmani almashtirish.									
2.		Kla'anlar	Tirqishni roslash.	+		+		+		+		+
3.		Silindr kallagidagi gaykalar.	Tortib mahkamlash qo'yish.	+								
4.		Moy filtri	Almashtirish.	+	+	+	+	+	+	+	+	+
5.		Moy	Almashtirish.	+	+	+	+	+	+	+	+	+
6.		Sovitish suyuqligi	Qo'shimcha quyish, almashtirish.	+		+		+		+		+

7.		Sovitish tizimidagi birikmalar.	Tekshirish, zarurat bo'lsa mahkamlash.			+		+		+		+
8.		Chiqindi gazlarni chiqarish tizimi.	Tekshirish, zarurat bo'lsa almashtirish.			+		+		+		+
9.		Gaz taqsimlash mexanizmining tishli tasmasi.	Almashtirish.							+		
10.		Karburator	Tozalash.		+	+	+	+	+	+	+	+
11.		Yuqori kuchlanish simlari.	Holatini tekshirish.			+		+		+		+
12.		O't oldirish taqsimlagichi	Tekshirish.	+		+		+		+		+
13.		O't oldirish svechalari.	Almashtirish.			+		+		+		+
14.		O't oldirish burchagi.	Rostlash.	+	+	+	+	+	+	+	+	+
15.		O't oldirishni ilgarilatish burchagini markazdan qochma rostlagich.	Tekshirish, zarurat bo'lsa almashtirish.			+		+		+		+
16.		Havo filtri.	Almashtirish.		+	+	+	+	+	+	+	+
17.		Yonilg'i filtri.	Almashtirish.			+		+		+		+
18.		Salt ishlashda.	SO miqdorini rostlash.	+	+	+	+	+	+	+	+	+
19.		Akselyator te'kisi yuritmasini.	Tozalash, moylash.		+	+	+	+	+	+	+	+
20.		Benzinbakning yonilg'i quyish bo'g'zi va yonilg'i uzatish tizimi.	Ji'sligini tekshirish.	+		+		+		+		+
21.		Karterni shamollatish tizimi.	Quvurlarni tozalash, zarurat bo'lsa almashtirish.			+		+		+		+
22.		Ilashish muftasini yuritmasi.	Rostlash.	+	+	+	+	+	+	+	+	+
23.		Uzatmalarni almashtirish mexanizmi.	Moylash.			+		+		+		+
24.		Uzatmalar qutisidagi moy.	Tekshirish, almashtirish.		+	+	+	+	+	+	+	+
25.		Yetakchi yarim o'qlar.	Sharnir va zichlagichlarni tekshirish.			+		+		+		+
26.		Rul boshqarmasi	Holatini tekshirish.	+	+	+	+	+	+	+	+	+
27.		Old g'ildiraklar.	Vintli birikmalarni tekshirish.	+		+		+		+		+
28.		Osma va g'ildiraklar.	Oldingi g'ildiraklarning yaqinlashuvini rostlash.	+	+	+	+	+	+	+	+	+
29.		Oldingi g'ildiraklar.	G'ildiraklarni muvozzavantlash.		+	+	+	+	+	+	+	+
30.		Tormoz tizimi.	Tormoz te'kisi holati, erkin yo'lini tekshirish va rostlash.	+	+	+	+	+	+	+	+	+
31.		Tormoz tizimi.	To'xtatib turish tormozini tekshirish va rostlash.	+	+	+	+	+	+	+	+	+
32.		Tormoz tizimi.	Tormoz suyuqligi sathini tekshirish.	+	+	+	+		+	+	+	+
33.		Tormoz tizimi.	Tormoz suyuqligini almashtirish.					+				
34.		Tormoz tizimi	Tormoz shlanglari va quvurlarining holatini tekshirish.	+	+	+	+	+	+	+	+	+
35.		Tormoz tizimi.	Tormoz ustquymalari, disk va barabanlarning holatini tekshirish.	+	+	+	+	+	+	+	+	+
36.		Kuzov.	Eshik halqalarini moylash.		+	+	+	+	+	+	+	+
37.		Kuzov.	Korroziyaga qarshi ishlov berish.	+				+				+

38.		Elektr jihozlar	O'tkazgich ulagichlarni tekshirish.			+		+		+		+
39.		Elektr jihozlar.	Faralar holatini tekshirish va rostlash.	+	+	+	+	+	+	+	+	+
40.		Startyor	Tekshirish, moylash, cho'tkalarni almashtirish.					+				+

3.2. Avtomobillarga txk turlari bo'yicha bajariladigan ishlar texnologik jarayonning ketma-ketligi

Faoliyat turlari	Asbob uskuna, moslama va ashyo.	Rasm (ko'rinish)	Ish bajarishda qo'yiladigan talablar.
1. Avtomobilni yuvish.	Yuvish va artish vositalari.		Avtomobil sirtlarida suv qolmasin va tiralishlarga kirishga yo'l qo'yilmasin. Avtomobilni yuvish 'aytida quyidagilarga e'tibor berish kerak: 1. Avtomobil kuzovining tag ('astki) qismi va g'ildiraklardan iflosliklarni chiqarib, tashlash uchun bosim ostida suv bilan yuviladi. Iflosliklarni yumshatish uchun suvni ko'roq se'ib yaxshilab tozalash kerak. 2. Iflosliklarni tozalashda gubka, cho'tka va shunga o'xshash materiallardan faqat suv bilan birgalikda foydalanish kerak. Qattiq va dag'al materiallardan foydalanish bo'yalgan yuzani tirnashiga sabab bo'ladi. 3. Avtomobilning tashqi sirti neytral yuvish vositalari yoki maxsus avtomobil sovini bilan yuvilib, yumshoq gubka yoki latta bilan yengil artiladi. Bunda gubka yoki latta yuqorida ko'rsatilgan yuvish vositasi solingan idishda tez-tez ho'llab turilsin. 4. Iflosliklardan tozalangan sirtini yuvish vositalaridan tozalash uchun suv bilan yuvib tashlash kerak. 5. Yuvilgan avtomobil sirti (kuzovi) namroq latta yoki zamin bilan artilib, soyada quritish kerak. 6. Bo'yalgan sirtini e'tibor bilan qarab chiqilsin. ar shikastlanishlar borligi aniqlansa:
2. Sovitish tizimidagi suv sathini tekshirish.	Ko'rish orqali nazorat qilinadi.		Suyuqlik LOW va FULL oralig'ida bo'lsin. Zarurat bo'lsa me'yorigacha qo'yilsin.
3. Moy sathini tekshirish.	Shu', artish materiali.		Moy o'lchagich chiqarib olinib artiladi, so'ngra joyiga kiritilib qayta chiqarilib, moy miqdori tekshirilsin. Moy sathi yuqori va 'astki chegaralar oralig'ida bo'lishi ta'minlansin.
4. G'ildiraklardagi havo bosimini o'lchash.	Manometr.		Me'yoriy bosim sovuq holda oldingi g'ildiraklar uchun 2,0 kg/sm ² . Orqa g'ildiraklar uchun 2,2 kg / sm ² . Me'yorda bo'lishi ta'minlansin.

3.3. O'quv amaliyotini o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Dars bosqichlari	Ta'lim beruvchi (o'qituvchi)	Ta'lim oluvchi (o'quvchi)
I-bosqich: Tashkiliy qism. (10 daqiqa).	O'quvchilar davomati, har bir o'quvchi iskiyimi holati tekshiriladi.	Dars mavzusi va maqsadi bilan tanishadi.
II-bosqich: Kirish yo'riqnomasi. (40 daqiqa).	Mehnat xavfsizligi va sanitariya qoidalarini tushuntiradi. Mavzuga tegishli nazariy bilimlarni takrorlaydi. Ish bajarish ketma-ketligini tushuntiradi.	Xavfsizlik qoidalarini bo'yicha berilayotgan ko'rsatmalarni o'zlashtiradi.
III-bosqich: Nazariy bilimlarni tekshirish. (test). (20 daqiqa).	10 ta dan test savollarini tarqatadi va nazorat qiladi.	Testga yozma ravishda javob beradi.
IV-bosqich: Amaliy ishlar. (150 daqiqa).	Ish bajarishini kuzatib, tegishli ko'rsatmalar bilan beradi.	Berilgan vazifalarni bajaradi.
V-bosqich: Yakuniy qism. (20 daqiqa).	Baholash varaqalarini to'ldirib kamchiliklarni tahlil qiladi va ish o'rinlarini qabul qilib oladi.	Baholar bilan tanishib, islohot o'rnini tartibga keltirish to'g'risida to'g'irishadi.

3.4. O'quvchilarning bilimlarini tekshirish uchun namunaviy test savollari

Texnik xizmat ko'rsatish tashkiliy-texnik tadbirlar majmui bo'lib, ulardan maqsad

- A) avtomobil detallarining yeyilish tezligini kamaytirish;
- B) nosozliklarni oldini olish;
- V) trans'ort vositalarining tashqi ko'rinishi yaxshi holatini ta'minlash;
- G) aytib o'tilgan barcha ko'rsatkichlar bajarilishini ta'minlash.

3.4.1. Kundalik TXK dan maqsad?

- A) xarakat xavfsizligini ta'minlash;
- B) avtomobilning tashqi ko'rinishini yaxshi saqlash;
- V) avtomobilning texnik holatini aniqlash;
- G) barcha javoblar to'g'ri.

3.4.2. DAEWOO avtomobillari uchun davriy TXK muddatlari masofa bo'yicha necha ming km dan so'ng bajariladi?

- A) har 10 000; B) har 20 000; V) har 30 000; G) har 40 000;

3.4.3. Kla'an tirqishlarini rostlash ishlari qaysi TXK turida bajariladi?

- A) kundalik TXK; B) davriy TXK;
- V) ikkala turida ham; G) haydovchining hohishi bo'yicha.

3.4.4. Davriy TXK (DAEWOO avtomobillari uchun) qaysi turlarga bo'linadi?

- A) oylik, yillik; B) 1 TXK; 2 TXK; MTXK.
- V) oylik, 1 TXK; G) oylik, 2 TXK.

3.4.5. Nazorat tashhis qo'yish ishlari 1 TXK dan necha kun oldin amalga oshiriladi?

- A) 1-2 kun; B) 3-4 kun;
- V) 5-6 kun; G) 7-8 kun;

3.4.6. Nima sababdan avtomobil kuzovining ichki va tashqi sirtlarini tozalashda lak, benzin, eritkichlaridan foydalanishga ruxsat etilmaydi?

- A) inson salomatligiga xavf tug'diladi;
- B) yong'in chiqish xavfi;
- V) avtomobilning bo'yalgan sirtiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;
- G) barcha javoblar to'g'ri.

3.4.7. Yuvish vositalari bilan tozalangan avtomobil sirti

- A) toza suv bilan yuviladi;
- B) quyosh nurida quritiladi;
- V) havo bosimida quritiladi;
- G) barcha javoblar to'g'ri.

3.4.8. KTX da avtomobil eshigining qulflash mexanizmining nosozligi aniqlansa, avtomobilni boshqarishga ruxsat etiladimi?

- A) man etiladi;
- B) mumkin;
- V) TXK shahobchasigacha yetib borishga ruxsat etiladi;
- G) nosozlik tuzatilib, so'ngra boshqarish mumkin.

3.4.9. Reja bo'yicha DAEWOO avtomobillarida gaz taqsimlash mexanizmining tishli tasmasi necha ming km yo'l bosilgandan so'ng almashtiriladi?

- A) 20 000 km;
- B) 30 000 km;
- V) 40 000 km;
- G) 60 000 km.

3.5. Avtomobillarga TXK mavzusini o'qitishda interfaol strategiyalarni qo'llash

Olib borilgan tahlillar Avtomobil va dvigatellarga TXK fanini o'qitishda interfaol strategiyalardan biri o'yinli texnologiyalardan foydalanish yuqori samara berishini ko'rsatdi.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning tahkidlashicha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. L.S.Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida tahriflaydi. A.N.Leontg'ev esa o'yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlarini xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

O'yinli faoliyat muayyan funktsiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi va ular qo'yidagilar:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchi;
- tashhis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

O'yinlarni muhim qirralari S.A.SHmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun ham qo'llaniladi. O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, Raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qarayodilar. O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subhekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Hozirgi kunda o'yinli texnologiyalarni bir necha turi mavjud bo'lib, ulardan pedagogik va tadbirkorlik o'yinlari keng qo'llanilmoqda.

Tadbirkorlik o'yinlarini mashhur psixologlar L.S.Vigodskiy, A.N.Leontg'ev, P.Ya.Galg'perin va boshqalarning ishlarida nazariy asoslangan.

Tadbirkorlik o'yinlari o'z xarakteriga ko'ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi. Tadbirkorlik o'yini Yangi texnologiya sifatida mohiyatan qo'yidagilarni bildiradi:

- ishlab chiqarish imitatsion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv material mazmunining izchilligi;
- o'yinli o'quv modelida kelgusida kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish;
- o'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug'dirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;
- o'yinning tahlil va tarbiyaviy samaradorligi yig'indisi;
- o'yinni olib boruvchi o'qituvchining talabalar faoliyatini tashkil etish boshqarishidan talabalar o'z hatti harakatlarining tashkil etish boshqarishga o'tishini tahminlashi.

A.Tyukov fikricha har qanday o'yin qanday loyihalashtirishdan qat'i nazar, ularning har biri qo'yidagi talablarni bajarishi lozim:

- kasbiy doira imitatsiyasi yaxlitligini. O'yin imitatsiyasiga taalluqli bo'lgan tuzilma va jarayonlar asosiy voqelikni aks ettiruvchi umumiy syujet yoki asosiy mavzuga ega bo'lishi lozim;
- mustaqil tashkil etishga yo'nalganligi;
- o'qitishning muammoliligi;
- metodologik, psixologik va texnik jihatdan tahminlanganligi.

I.Olloyorov tadbirkorlik o'yinlariga o'quv ishlarini tashkil etishning bir shakli sifatida qaraydi. U o'yinlar o'quv jarayonida o'z o'rniga ega va o'quv jarayonining asosiy vazifalari, mohiyati va tuzilmasi hamda o'rganilayotgan fanning didaktik tabiatiga bog'liq bo'lgan, Aniq belgilangan didaktik funktsiyalarni bajarishini ta'kidlaydi. Tadbirkorlik o'yinlarini didaktik funktsiyalariga qo'yidagilar kiradi:

- talabalarda aqliy faoliyat usullarining shakllanishi;
- bilimlarni mustahkamlash va qo'llash;
- o'quv jarayonida bo'lg'usi mutaxassisning faoliyati faqat o'rganish emas, balki uni bajarishga qaratilgan didaktik qoidalar ishlab chiqishdan iborat bo'lishi;
- talabalar o'quv-bilish faoliyatining bo'lg'usi kasbiy faoliyati, xarakter va tuzilmasiga maksimal darajada yaqinlashib borishi.

Tadbirkorlik o'yini ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorgarlik bosqichlariga ega:

1. O'quv-bilish vazifalarni muammoli vaziyat topshirig'i shaklida qo'yish:
 - bo'lg'usi tadbirkorlik o'yinining maqsadini aniqlab olish;
 - bilimlarni mustahkamlash va qo'llash;
 - talablarga navbatdagi tadbirkorlik o'yini haqida dastlabki ma'lumotlar berish.
2. Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan avval egallangan bilimlardan foydalanish;
 - talabalar o'qituvchidan yoki adabiyotlarni tahlil qilish orqali yangi bilimlarni qabul qilib olishi;
 - bajarilishi lozim bo'lgan ish to'g'risida talablarga yo'l-yo'riqlar ko'rsatish;
 - olingan bilim, o'zlashtirilgan ilmiy tushunchalar va ishlash metodlarini umumlashtirish;
 - o'z-o'zini nazorat qilish.
3. Tadbirkorlik o'yinlarining shartlarini tushintirish va vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan yangi amaliy bilimlarning axborotini berish.
4. Navbatdagi ishni rejalashtirish:
 - ularga avval ma'lum bo'lganlar asosida uning ayrim bosqichlarini bajarish usullarini tanlash;
 - avval egallagan bilimlar asosida tushintirish ishini olib bori shva o'z ijodi uchun zarur bo'lgan yangi metodlarni qidirish;
 - rivojlantirishni mustaqil nazorat qilish.
5. Vazifa shartlari, ularning bajarilishini tushintiruvchi qoidalar o'rganish va tahlil qilish bo'yicha mustaqil ishlar va tadbirkorlik o'yinlaridagi o'z mavqeini aniqlash.
6. O'zlaridagi bor bilim, malaka va ko'nikmalar asosida reja bo'yicha ishlarni bajarish:
 - yangi bilim va malakalarni hosil qilish;
 - o'z hatti-harakatlari va ularni natijalarini muntazam nazorat qilish;
 - qayd qilingan kamchiliklar va ularning sabablarini bartaraf qilish;
 - belgilangan rejalarni takomillashtirish;
 - yakuniy natijalarni tekshirib ko'rish va tahlil qilish.
7. Talabalar faoliyatini, ularning bilim, malakasi, ko'nikmalarini nazorat qili shva joriy yo'l-yo'riqlar berish.
8. Talabalar tadbirkorlik o'yinlariga tayyorligini aniqlash maqsadida ularning mustaqil ishlari natijalarini tekshirib ko'rish.
9. Talablarga tadbirkorlik o'yinlarini o'tkazish va unda qatnashish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish, ularni rol o'ynash bo'yicha taqsimlash, zarurat tug'ilganda har biriga qo'shimcha yo'l-yo'riqlar berish.
10. Oldindan ishlab chiqilgan stsensariy bo'yicha talabalar tadbirkorlik o'yinlari.

11. O'yin qatnashchilariga joriy yo'l-yo'riq berish.

12. O'yin ishtirokchilarining o'yin davomida o'zi o'ynagan rollariga baho beri shva o'z-o'zini nazorat qilishi.

13. Tadbirkorlik o'yini natijalarini muhokama qilish va talabani o'quv-o'yin faoliyatiga baho berish. SHunday qilib, tadbirkorlik o'yinlari materiallarniyangi bilimlarni egallash, o'tilganlarni mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish kabi bir qator vazifalarni yechishda foydalaniladi.

Tadbirkorlik o'yinlarining bir nechta modifikatsiyalari mavjud bo'lib, biz ulardan imitatsion o'yinlarni ko'rib chiqamiz. Bunday o'yinlardan mAqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari faoliyati andoza qilinadi. Voqealar kishilarning biror faoliyati, faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi mumkin.

Stsenariyda bunday o'ynashni to'la tuzilmasi ishlab chiqiladi va imitatsiya qilinadigan obhektlar va jarayonlar belgilanadi.

Tadbirkorlik o'yinlari texnologiyasi 3.3-jadvalda keltirilgan.

Bu texnologiya tayyorgarlik davrini ham o'z iyaiga oladi. U stsenariyni yozib chiqish, vaziyat va obhektlarni shartli belgilar asosida tasvirlashdan boshlanadi. Stsenariy mashg'ulotning o'quv maqsadi, o'rganilayotgan muammoni tavsifi, qo'yilgan vazifani aoslash, o'yinning rejasi, vaziyatning mazmuni va qatnashuvchi shaxslarning tavsifini o'z ichiga oladi.

O'yinga kirishish. Bu bosqichda ish tartibi Aniqlanadi, Yu Mashg'ulotning bosh maqsadi shakllantiriladi, muammoni qo'yish va vaziyatni tanlash asoslanadi.

O'yinni o'tkazish bosqichi. O'yin boshlangach, hech Kim unga aralashmaydi va uning borishini o'zgartira olmaydi. O'yinni faqat uni boshqaruvchi tuzatib borishi mumkin.

Tahlil bosqichi. O'yin natijalari muhokama qilinadi va baholanadi. Bu bosqichda ekspertlarni fikrlari eshitiladi, o'zaro fikr almashinadi, talablar o'z hatti harakatlari va xulosalarini himoya qiladilar.

SHunday qilib, tadbirkorlik o'yinlar bo'lg'usi mutaxassisning ilmiy-ijodiy tajribalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

3.5-jadval.Tadbirkorlik o'yini texnologiyasi

Tayyorgarlik bosqichi	O'yinni ishlab chiqish	-stsenariy yaratish - tadbirkorlik o'yini rejasi - o'yinning umumiy tavsifi - yo'l-yo'riqlar mazmuni - moddiy tahminot tayyorgarligi
	O'yinga kirishish	- muammo, maqsadni aniqlab olish - shartlari, yo'l-yo'riq berish - reglament, qoidalar - rollarga bo'lish - guruhni shakllantirish - maslahat
O'tkazish bosqichi	Vazifani guruh bo'lib ishlab chiqish	- manbalar bo'yicha ishlash - trening - «aqliy hujumi» - o'yin texnikasi ustida ishlash
	Guruhlararo munozara	- guruhlarning chiqishlar - natijani himoya qilish - munozara qoidasi - ekspertlar ishi
Tahlil va umumlashtirish bosqichi		- o'yinni to'xtatish - tahlil, refleksiya - o'yinni baholash va o'z-o'zini baholash - xulosalar va umumlashtirishlar - tavsiyalar


Klasterlarga ajratish

Avtomobillarga TXK va T texnologiyasi mavzusini o'qitishda klaster uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq. Klasterlarga ajratish pedagogik strategiya bo'lib, u ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushunchalar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi, biror mavzu bo'yicha

talabalarni erkin va ochiqdan-ochiq fikrlashiga yordam beradi. «Klaster» so'zi g'uncha, bog'lam mahnosini angaltadi. Klasterlarga ajratishni dahvat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag'batlantirish uchun qo'llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.

Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va tahmirlash texnologiyasi mavzusini o'rganish uchun quyidagi klasterlarni tuzamiz:

1. Sinf yozuv taxtasi o'rtasiga katta qog'oz varag'iga «Avtomobillarga TXK va T texnologiyasi» mavzusi bo'yicha kalitlar yozamiz.
2. Bu kalit so'zlardan foydalanib avtomobillarni yuvish tasnifini tuzamiz.
3. Qog'oz o'rtasiga «Avtomobillarga TXK va T texnologiyasi» deb yozib qo'yamiz va uning atrofiga talabalar fikrlab kerakli kalit so'zlar yozib borishadi.



3.1-rasm. Avtomobillarga ТХК ва Т texnologiyasini o'rganish bo'yicha klaster tuzish

4. 1. Pedagogik tajriba va uning natijalari

Namangan sanoat kasb-hunar kollejiâ “Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko’rsatish” fanini o’qitish jarayonida o’quvchilarni kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish bo’yicha tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda kasb-hunar kollejarining Avtotransport bo’limida malakali ishchi kadrlar tayyorlash bo’yicha dasturlar, avtomobillar va dvigatellarga TXX fani bo’yicha namunaviy va ishchi dasturlar, mahruza, laboratoriya va ishlab chiqarish tahlimiga oid materiallardan foydalandik.

Tajriba-sinov ishlari Avtotransport bo’limi yo’nalishining 3-bosqichi o’quvchilari bilan olib borildi.

Bajarilgan ishlarning qisqacha mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Takidlovchi bosqichda-ilmiy tadqiqot ishimiz materiallari asosida tajriba-sinov ishlarida qatnashuvchi shaxslar va zquv muassasining tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Malakali ishchilar tayyorlash bo’yicha o’quv rejalar va dasturlar tashkil etildi.
2. Tadqiqotni o’zgartiruvchi-shakllantiruvchi bosqichida o’quvchilarning ijtimoiy-siyosiy jihatdan bugungi kun talabi darajasida shakllantirish bo’yicha o’tkaziladigan tajriba-sinov ishlari uchun zarur bo’lgan materiallar, ko’rsatmalar va chor-tadbirlar ishlab chiqildi. Olingan natijalar umumlashtirildi suhbat va kuzatishlar orqali o’quvchilarda kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarni shakllanganlik darajasi aniqlandi.
3. Hal qiluvchi bosqichda “Avomobi va dvigatellarga texnik xizmat ko’rsatish” fanini o’qitish jarayonida o’quvchilarning texnik hamda kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan usullar, vositalar va metodlar tajribada sinab ko’rildi, ularning samaradorligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda nazorat va tajriba guruhlariga berilgan materiallar bir o’qituvchi rahbarligida bir xil metodika yordamida sinab ko’rildi va ikkala guruh o’quvchilarida shakllangan texnik hamda kasbiy bilim, ko’nikma va malakalar farqlari taqqoslandi.. tajriba-sinov natijalarini olishda biz nazorat va tajriba guruhlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida laboratoriya amaliy mashg’ulotlar, mahruzalar faol o’qitish usullaridan foydalandik.

“Avomobi va dvigatellarga texnik xizmat ko’rsatish” fanidan o’quvchilarning texnik malakalarini shakllantirish bo’yicha o’tkazilgan tajriba-sinov ishlarini natijalarini taqqoslash uchun “Avomobi va dvigatellarga texnik xizmat ko’rsatish” fanidan nazorat ishlari va laboratoriya amaliy mashg’ulotlar baholarini asos qilib olindi.

4.1-jadval. O’tkazilgan tajriba-sinov natijalari

Tartib raqami	Guruh	O’quvchilar	Baholar				O’rtacha baho
			5	4	3	2	
1	Nazorat guruhi	48	11	14	20	3	3,69
1	Tajriba guruhi	48	18	22	8	-	4,21
Jami		96	29	36	28	3	3,95

Jadvaldagi natijalar tahlili quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi::

A) Nazorat guruhida mahruza va amaliy mashg’ulotlar anhanaviy usulda olib borilgan bo’lib, mavzular o’qituvchi tomonidan berilgan. SHu sababli o’quvchilarning o’zlashtirishi yuqori bo’lmaydi.

B) Tajriba guruhida mahruza va amaliy mashg’ulotlar pedagogik texnologiyalar, interfaol strategiyalarni qo’llash asosida o’tildi va yuqori natijalarga erishildi.

Olingan natijalar ushbu fanni o’qitishda interfaol strategiyalardan foydalanish yuqori samara berishi mumkinligini ko’rsatdi.

5.1. Kasb hunar kolleji o'quv ishlab-chiqarish bazasida mehnatni muhofaza qilaish Ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasalliklar

Ishlab chiqarishda yuz beradigan jarohatlanishlar. Jarohatlanish (grekcha trauma-yara) deb odam organizmiga ishlab chiqarish omillarining xavfli ta'siri natijasida, ya'ni baxtsiz hodisa tufayli organizm to'qimalarining jarohatlanishi va ishlash faoliyatini buzilishiga aytiladi. Ular beixtiyor (lat yeyish, kesib olish, sinish, chiqish va boshq), kimyoviy (kislota va ishqorlar ta'sirida kuyish), termik (odam organizmiga yuqori yoki 'ast harorat ta'sir etib, kuyish, yoki sovuq urishi), elektrdan kuyish, to'k urish va boshq. – 'sixologik (qattiq hayajonlanish, qo'rquv va boshq) turlariga bo'linadi.

Jarohatlanish natijasida odam ish qobiliyatini vaqtinchalik yoki doimiy yo'qotishga olib kelishi mumkin. Bunda ishchi umumiy ish qobiliyatini yoki kasbiy ish qobiliyatini yohud ikkalasini ham yo'qotishi mumkin;

Ishlab chiqarishdagi kasallanishlar. Kasbiy va umumiy kasallanishlar noqulay ish sharoitlaridan kelib chiqishi mumkin. Kasbiy kasalliklar zararli ishlab chiqarish omillari ta'siridan kelib chiqadi (kasbiy zararlar). Ular vaqtinchalik, uzoq vaqtgacha yoki umuman ish qobiliyatini yo'qotishga (nogironlikka) olib kelishi mumkin.

Kasb kasalliklarining ayrim hollari kasbiy zaharlanish deb hisoblanadi (o'tkir yoki surunkali). Kasb kasalliklarning etiologiyasi (kelib chiqishi) bo'yicha fizikaviy omillar, chang, kimyoviy moddalar va biologik omillarning odam organizmiga ta'sir etishidir. Fizikaviy omillar natijasida sodir bo'ladigan kasbiy kasalliklarga qaltirash kasalligi kiradi va u odam organizmini titrashi natijasida kelib chiqadi. Odam organizmiga og'ir jismoniy mehnat, odam tanasining ish vaqtida doimiy egilib turishi ta'sir ko'rsatadi. Sovuqning ta'siri natijasida bel og'rishi-radikulit 'aydo bo'ladi. Odam organizmiga changning ta'sir qilishi natijasida sodir bo'ladigan kasb kasalliklariga surunkali kasbiy o'ka fibrozi, 'nevmokoioz va changlardan uzoq vaqt nafas olish natijasida kelib chiqadigan kasalliklar kiradi.

Kimyoviy moddalar ta'siri natijasida kelib chiqadigan kasbiy kasalliklarga surunkali va o'tkir zaharlanish, o'tkir va surunkali teri kasalliklari (dermatitlar va ekzemalar), konyuktivitlar va boshqalar kiradi. Noqulay ish sharoitlari havo haroratining keskin o'zgarishi, yelvizaklar, namlik, neft mahsulotlari bilan bog'liq bo'lgan chang, kuchli jismoniy zo'riqish, ovqatlanish tartibining buzilishi va bemorlar bilan aloqada bo'lish vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotishga olib kelishi mumkin. Shuningdek, dalada ishlaydiganlar ichida keng tarqalgan kasalliklardan shamollash (21%), suyak muskul kasalligi (8,2% va yurak-tomir sistemasi (7,8%), ovqat xazm qilish a'zolari (6,8%) va boshqalar. Umumiy kasallik bilan og'rish kasbiy kasalliklardan ancha ko'k. Ish vaqtida kasallanish tufayli yo'qotiladigan ish vaqti, jarohatlanishlar sababli yo'qotilganga qaraganda 30 barobar ko'kdir.

Ishlab chiqarishdagi jarohatlanish va kasallanishlarning sabablari

Ishlab chiqarishdagi jarohatlanish va kasallanishlarning barcha sabablarini shartli ravishda quyidagilarga birlashtirish mumkin: texnik, tashkiliy, sanitar-gigiyenik, 'sixo-fiziologik, iqtisodiy va xodimning aybi bilan yuz beradigan kasalliklar.

Texnik sabablar: uskuna va moslamalari, to'siq qurilmalari, tormoz tizimining ishlamasligi yoki nosozligi, gidravlik tizimning soz emasligi tufayli kelib chiqadi.

Tashkiliy sabablar: ish joylarining uskuna, moslama va yordamchi asboblari bilan yetarli ta'minlanmaganligi, yuk ko'tarish vositalarida bog'lab qo'yuvchi moslamalarning yo'qligi, yo'l-yo'riqning o'z vaqtida berilmaganligi va mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitish ishlarining yetarli olib borilmaganligi, mehnat xavfsizligi bo'yicha ko'rsatmalarining yo'qligi, ishchilarning o'z vaqtida maxsus kiyimlar bilan ta'minlanmaganligi, dam olish va mehnat qilish tartibining buzilishi tufayli kelib chiqadi.

Sanitariya – gigiyenik sabablar: ish joyida noqulay mikroiklim (harorat, havoning namligi va harakat tezligi 'arametrlarining ish sharoitlariga muvofiq kelmasligi), yoritilganlik darajasining talablariga javob bermasligi, ish joylarining betartibli va iflosligi, maishiy xonalarning (yechinish, yuvinish – cho'milish xonalari, hojatxona va boshq) yo'qligi natijasida kelib chiqadi.

Ruhiy holat sababi: ishning hamisha bir xilligi, qattiq jismoniy mehnat tufayli zo'riqish, kishi organizmiga ish joyining ruhiy anatomik fiziologik jihatdan mos kelmasligi, charchash, jamoatchilik orasidagi nosog'lom muhit tufayli kelib chiqadi.

Iqtisodiy sabablar: mehnat muhofazasi masalalariga sovuqqonlik bilan qarash, shuningdek, oylik moashlarini o'z vaqtida bermaslik va ishchilarning yuqori ish unumiga erishishga intilmasligi, ish sharoitlarini yaxshilash tadbirlariga yetarli mablag' ajratilmasligi tufayli kelib chiqadi.

Ishchining aybi bilan sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalar qatoriga: ishchining intizomsizligi, ishga betob yoki mast holda kelishi kiradi.

Xavfsiz va zararsiz mehnat sharoitlarini yaratishning asosiy yo'llari

Xavfsiz va zararsiz mehnat sharoitlariga quyidagilar kiradi: qulay texnologiya, ish tartibi, ishlab chiqarish vositalaridan to'g'ri foydalanish, qulay ish sharoitlari, xom ashyolar, yarim mahsulotlar, ish o'rnini to'g'ri tashkil qilish va yaroqli jihozlar, himoya vositalaridan oqilona foydalanish, xavfsizlik talablarini bajarish, kasbga qarab tanlov o'tkazish va ishchilarni o'qitish, texnik-me'yoriy hujjatlarga xavfsizlik vositalarini kiritish bilan ta'minlanadi.

Texnologik jarayonlarni to'g'ri loyihalash, tashkil etish va o'tkazishda xavfsiz ishlash talablari oldindan nazarga olinadi. Buning uchun ishlab chiqarishda zararli ta'sirlarning oldini olish, ishdagi o'ratsiya va jarayonlarni o'zgartirish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish hamda masofadan turib boshqarishni qo'llash, gi'odinamiyaga e'tibor berish, ishni oqilona tashkil etish shu bilan bir qatorda og'ir mehnatni chegaralashni ham hisobga olish kerak. Shuningdek o'z vaqtida ishlab chiqarish xavfsizliklari to'g'risidagi ma'lumotga, jarayonni boshqarish va nazorat qilish tizimiga, o'z vaqtida chiqindilarni zararlantirishga, chiqarib tashlash xavf va zarar tug'diradigan manbalarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Mehnat muhofazasining huquqiy asoslari

O'zbekiston Res'ublikasi Oliy Majlisi 1995 yil 21 dekabrda 161-1 raqamli O'zbekiston Res'ublikasining Mehnat kodeksini tasdiqladi. Res'ublikamizda mehnatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari O'zbekiston Res'ublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Res'ublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida» gi Qonunda mustahkamlangan. Ushbu Qonun ishlab chiqarish usullari, mulk shaklidan qat'iy nazar korxonalarda muhofaza qilishni tashkil etishning yagona tartibini belgilaydi hamda fuqarolarning sog'ligi va mehnatini muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan.

Mehnatni muhofaza qilish – bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya- gigiyena va davolash 'rofilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat.

Ish va dam olish tartibi

Dam olish va ish jarayoni to'g'ri takrorlanib turishi shikastlanishlar oldini olishning birdan bir asosiy shartidir.

Kishining ish qobiliyati uning sezgirligiga, ishlab chiqarishdagi har xil xavfli va zararli omillarga ta'sirchanligiga, ish jarayonining uzluksizligiga bog'liq.

Agar kishi kun mobaynida uzluksiz ko'rsatilgan vaqtdan ortiqcha ishlasa, unda jismoniy charchash bilan bir qatorda ruhiy charchash ham 'aydo bo'lishi mumkin. Buning ustiga ishchiga uzoq vaqt mobaynida juda ko'q qarorlar qabul qilish yoki juda ko'q asboblarning ko'rsatkichlariga qarash to'g'ri kelsa, unda ruhiy charchash jismoniy charchashdan oldin kelishi mumkin. Ish joyida shovqin, titrash, gaz, chang va nurlanishning bo'lishi ruhiy charchashni tezlashtiradi va kishining noto'g'ri harakat qilishiga, shikastlanishiga yoki avariya holatiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ma'muriyat ish va dam olish tartibiga qat'iy rioya qilishi kerak.

Mehnat kodeksining 115-moddasiga asosan xodim uchun ish vaqti haftasiga 40 soatdan oshmasligi kerak. Ya'ni ish tartibi haftasiga besh ish kunida ikki dam olish kuni yoki haftasiga olti ish kunida bir dam olish kuni bo'lishi kerak. Ish vaqtining davom etishi (smena) olti ish kunlik ish haftasida yetti soatdan, besh kunlik ish haftasida esa sakkiz soatdan oshmasligi lozim. Bayram kunlari (131-modda) arafasida kundalik ish (smena) muddati barcha xodimlar uchun kamida bir soatga qisqartiriladi (121-modda). Agar xodim uchun belgilangan kundalik ish (smena) muddatining kamida yarim tungi vaqtga to'g'ri kelsa, tungi ish muddati bir soatga, ish haftasi muddati ham shunga muvofiq ravishda qisqartiriladi. Soat 22⁰⁰ dan to soat 6⁰⁰ gacha bo'lgan vaqt tungi vaqt hisoblanadi (122-modda).

Xulosa

Menga bitiruv malaka ishi sifatida **Avtomobillarga TXK ko'rsatish mavzusi buyicha metodik tavsiya ishlab chiqish (Namangan sanoat KXX misolida)** mavzusi berilgan. Bitiruv malaka ishi oldi amaliyotini Namangan sanoat kasb-hunar kollejida o'tkazdim. Kasb-hunar kolleji o'quv jarayonini tahlil qilib chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishini mavzusining mohiyatidan kelib chiqib fan va mavzuni mutaxassis tayyorlashdagi o'rni, ahamiyati va uning tavsifi, fanni o'zlashtirgan o'quvchi qanday bilim, malakaga va ko'nikmaga ega bo'lishi, fan bo'yicha olib boriladigan dars turlari va ularni hajmi, tanlab olingan mavzuning ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan. Bu mavzuni o'tishda fanning o'quv rejasida tutgan o'rni, fanni o'rganishda boshqa fanlar bilan aloqasi va bu fan bo'yicha olingan bilimlar keiyngi o'qiladigan fanlar uchun ahamiyati haqida to'xtalib o'tildi.

Mavzuning uslubiy va texnik tahminotida mavzuni o'tish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy va ilmiy texnik adabiyotlar, ularda keltirilgan materiallarning saviyasi, sharhi va ulardan foydalanib dars materialini tayyorlash bo'yicha fikrlar bildirilgan. Darsni olib borishda foydalanilgan texnik vositalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Dars mavzusida o'quv uslubiy, ilmiy texnik adabiyotlar asosida dars materialini tayyorlangan. Dars o'tishni anhanaviy uslublari isqacha bayon etilgan va zamonaviy usullar bilan qiyoslangan.

Bitiruv malaka ishini tashkiliy qismida darsning mavzusi, darsda ko'zda tutilgan tahlimiy va tarbiyaviy maqsadlari, o'quv natijalari, darsning jihozlanishi, mavzuning strukturali-mantiqiy shakli, darsni tashkil qilish, mavzuni o'qitish metodlari va ularning tahlili, ko'rgazmali va didaktik materiallar yoritib berilgan. Bitiruv malaka ishini iqtisodiy qismida taklif etilgan uslubni afzalligi va uni o'quvchilarni bilimini oshirishdagi samaradorligi aniqlangan.

Mehnat muhofazasi qismida avtomobillarga tizimiga texnik xizmat ko'rsatish uchastkasida mehnat xavfsizligi tahlil qilingan va chora tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha takliflar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. T. O'zbekiston. 1992.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., O'zbekiston. 1997.
3. Oliy tahlil. Mehoriy hujjatlar to'plami: S.S.G'ulomov tahriri ostida; Tuzuvchilar: B.X.Raximov, SH.D.Jonboev va boshq. –T.: «SHarq», 2001.
4. Dadamirzaev G', Ishmatov Q. Muammoli mahruza o'quvchilari talabalarni izlanishga, fikrlashga chorlaydi. «Mahrifat» 2003 yil 15 oktyabr soni.
5. Golish A.V. Yangi turdagi o'quv muassasalarida malakali ishchi xodimlar tarbiyalashning xususiyatlari. Xunar tahlili ITI. T.: -1994.
6. Mirsaidov K.J., Ismailova Z.K. Tarbiyaviy soatlarni o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. TIKXMI, T.: -1996.
7. Mirsaidov K.J. Maxsus fanlarni o'qitish va ishlab chiqarish tahlili. T.: -1996.
8. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. OUMMI, Toshkent., -1999.
9. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T.: «Moliya» nashriyoti, 2003. 172 b.
10. Loshakov K.A. Avtomobilning tuzulishi. T.: O'qituvchi, 1992. –264 b.
11. Dadamirzaev G', Matkarimov P. Bakalavrlar uchun bitiruv malakaviy ishini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. Namangan, 1999.
12. Maxmudov Z., Matkarimov K. Kasb tahlili yo'nalishi bakalavrlarining malakaviy bitiruv ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. Namangan, 2003.
13. Yo'ldashev J.G'. Yangi pedagogik texnologiya yo'nalishlari, muammolari, yechimlari G' Xalq tahlili, 1999, №4. 4-11 b.
14. Sayidahmedov N. O'qituvchining pedagogik tizimdagi faoliyati G' Xalq tahlili, 1993, №6-7. 9-12 b.
15. Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. –T.: 2002, -192 bet.
16. Ishmatov Q. Ilg'or pedagogik texnologiyalar fanidan interaktiv strategiyalardan foydalanib o'tkaziladigan modellangan mashg'ulotning metodik ishlanmasi. –Namangan, 2002.
17. Avtotransportni ishlatish va tahmirlash tayyorlov yo'nalishi bo'yicha tarmoq tahlil standarti va o'quv dasturlari. Kod 3521210. –T.: 2003, -232 bet.
18. Matkarimov K.J. Maxsus fanlar va ishlab chiqarish tahlilini o'qitish metodikasi. Mahruzalarni matni. Namangan-2004.
19. Kramerenko G.V., Barashkov N.V., Avtomobillarga texnikaviy xizmat ko'rsatish.
20. Kuznetsov V.S., Avtomobillardan texnikaviy foydalanish.
21. Kabanov V.K., Mishuk V.V., Avtomobillarga TXK bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari.
22. Fastovtsev G.F., Yengil avtomobillarga TXK va T ni tashkil etish.
23. Semyonov N.V., Avtobuslarga TXK va T o'tkazish.
23. <http://referat.students.ru>; <http://www.referats.net>; <http://www.referats.com>